

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PSIXOLOGIYA
FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

ORTIQOV SIROJIDDIN SA'DULLAYEVICH

**O'SPIRINLARDA HUQUQIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
psychological Sciences**

Ortiqov Sirojiddin Sa'dullayevich

O'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
.....3

Ортиков Сирожиддин Саъдуллаевич

Социально-психологические особенности развития правосознания
подростков.....

Ortiqov Sirojiddin Sa'dullayevich

Socio-psychological features of legal consciousness development in
teenagers.....

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PSIXOLOGIYA
FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Psi.72.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

ORTIQOV SIROJIDDIN SA'DULLAYEVICH

**O'SPIRINLARDA HUQUQIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/P601 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirov Obid Safarovich

psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Akramova Feruza Akmalovna

psixologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Hazrat Xuseynovich

psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Phd.03/30.12.2019.Psi.72.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ kuni soat ____ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14; faks: (+0365) 221-27-57; e-mail: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ da tarqatildi.

(2024-yil «__» _____ da) _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

A.M. Nazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.A. Xuseynova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniyligni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanmoqda. YUNISEFning statistik ma'lumotlariga ko'ra oxirgi 20 yil ichida Yevropa va Osiyoda asosan yoshlar orasida jinoyatlar 90 % oshgan. Taqdim etilgan raqamlarga ko'ra, 2019-yilning sentabr-dekabr oylarida ta'lim muassasalariga joylashtirilgan bolalar soni 2018-yilning shu davriga nisbatan 60,5 foizga kam bo'lgan, ozod etilganlar soni esa 18 foizga oshgan. Bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 25,6 foizga, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning o'zi esa 20 foizga kamaydi¹. Bu borada jamiyatda huquqiy bilimga ega, ijtimoiy jihatdan yetuk, erkin shaxsga muhtojlik, ko'plab ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarda yoshlarda huquqiy ongni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojning ortishi, huquqiy normalarni qanday o'rgatish, ularni tushuntirish va amalga oshirish mexanizmlarini tizimli tartibga solishni takomillashtirish masalalarini tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy muassasalarida shaxslarning huquqiy ongi, huquqiy savodxonligi va savodsizligi, individual-psixologik xususiyatlari, savodxonlik darajasining shaxs ijtimoiylashuv omili sifatidagi huquqiy madaniyati, aholining huquqiy savodxonlik indeksi kabi yo'nalishlarga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishiga qaramay, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy savodxonligi belgilangan me'yorlarda shakllanmaganligi tufayli o'z konstitutsiyaviy huquqlari to'g'risida boshlang'ich bilimga ega bo'lmaslik, hokimiyatga ishonchsizlik, ijtimoiy keskinlik ko'rinishlaridagi salbiy munosabatlar, «...axborot savodxonligi va huquqiy ong...inson huquqlari va faol fuqarolik kontekstida bir-biriga ta'sir qilishi...»² dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Bu borada, jamiyatda o'z o'rnini topishga qiynaladigan o'spirinlarning fuqarolik huquqlarini anglab yetishi, shaxsiy va jamoat ishida faolligini namoyon etishiga to'siq bo'luvchi holatlarning huquqiy jihatlarini ta'minlash, ularda huquqiy savodxonlikning psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish va keng qamrovli konstruktiv choralarini amalga oshirish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda aholining, ayniqsa, katta hayot ostonasiga endi qadam qo'yayotgan yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularning huquqiy savodxonlik darajasi, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda³. Xususan, ularning ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, qonunlarning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab

¹ <https://news.un.org/ru/story/2020/02/1373191>

² Dombrovská M. Literacy for Democracy: What Can Information Literacy Learn from Legal Literacy, and Vice Versa? //European Conference on Information Literacy. – Springer, Cham, 2022. – C. 741-748

³ <https://blog.xabar.uz/post/yoshlar-orasida-huquqiy-savodxonlikni-oshirishda-huquqiy-ta-lim>

o'rgatish, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni keng yo'lga qo'yish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, masalalari davlatning muhim strategik maqsadlari etib belgilangan. Shuning uchun milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilyapti. Ayniqsa, so'nggi yillarda o'spirin yoshlarning huquq va erkinliklari, ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi ishtirokini kuchaytirish, ularning ta'lim olish tartibi, ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020 yil 30 iyundagi PF-6017-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlar, 2020 yil 30 iyundagi PQ-4768-son «O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Qarorlar hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shaxsning huquqiy ongi va huquqiy savodxonligini rivojlantirish jamiyatning eng dolzarb muammosi sifatida shaxs taraqqiyotining barcha bosqichlarida e'tiborga molik muammo bo'lib, uni funksional jihatdan shakllantirish zarur masalalar sanaladi.

O'zbekistonda shaxsning huquqiy savodxonligini ta'minlash borasidagi psixologik tadqiqotlar ko'lami ma'lum bir darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarda huquq psixologiyasining ba'zi muammolarini psixolog olimlardan M.X.Axmedova, Y.Y.Agzamova, B.Jo'raev, N.G'.Kamilova, G'.A.Normurodov, B.M.Umarov, V.G.Shepotkin, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S.N.Aleksandrova, S.S.Alekseev, V.Vasilev, O.B.Yermakova, A.M.Kunijev, M.M.Molonova, O.V.Martishin, Y.V.Orexova, O.N.Panteleeva, S.A.Shediy, T.N.Shamaeva, Y.A.Pevsova, N.I.Xabibulina, A.F.Cherdansev va boshqalar huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, huquqiy tushunchalar shakllanishi xususiyatlarining ijtimoiy-

psixologik yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan, lekin o‘spirinlarning huquqiy ongini rivojlantirish bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Xorij tadqiqotchilardan S.Ashok, A.Ramses, K.H.Barrett, W.H.George, K.Bowrey, V.P.Dik, L.Edelman, L.Krieger, S.Eliason, C.Albiston, A.Kumar, A.A.Semitko, A.Zariskilar va boshqalar huquqiy savodxonlikning zaruratini ilmiy tadqiq etishgan bo‘lsa-da, o‘spirinlar huquqiy savodxonligini tarkib topishining psixologik omillarini aniqlash masalalari ustuvor tadqiqot yo‘nalishi sifatida qaralmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236 «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi o‘spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni tadqiq etish hamda ijtimoiy-psixologik jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘spirinlarda huquqiy ustanovkalarni namoyon bo‘lishidagi differensial farqlarni aniqlash;

o‘spirinlar huquqiy savodxonligining psixologik komponentlari bilan huquqiy ong shakllarining o‘zaro aloqadorligini empirik asoslash;

o‘spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning psixologik omillarini aniqlash;

o‘spirinlarda huquqiy bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha psixotexnologiyalarni joriy etishga doir zarur takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida o‘spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tanlangan bo‘lib, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi akademik litsey o‘spirin o‘quvchilari 85 nafar, umumta‘lim maktablaridagi o‘spirin o‘quvchilar 155 nafar, jami, 240 nafar respondentlarni jalb etildi.

Tadqiqot predmetini o‘spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirish va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, L.S.Mozjakovaning «Huquqiy savodxonlikni o‘rganish» metodikasi, R.R.Muslumovning «Huquq va huquqiy ustanovkaga munosabatlarini o‘lchash» metodikasi, D.S.Beznosovning «Huquqga munosabat» metodikasi, “Shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini diagnostika qilish” metodikasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘spirinlarda huquqiy ustanovkalarni namoyon bo‘lishiga ko‘ra savodxonlikni emotsional – baholashning yigitlarda, huquqiy munosabatning qiz bolalarda gender xususiyatlarga bog‘liq ravishda ustuvorligi tufayli differensial farqlarning mavjudligi dalillangan;

o'spirinlarda huquqiy ongning namoyon bo'lishi shaxsdagi huquqqa nisbatan intolerantlikning konformizm, sinizm, nigilizm shakli huquqiy savodxonlikka real qarashni pasaytirganligi tufayli ustuvor huquqqa nisbatan deformatsiyalashgan munosabatning ustuvor xarakterge ega ekanligi asoslangan;

o'spirinlarda huquqiy ongning rivojlantirishda huquqiy idealizmni kuchaytirish axborotlarga nisbatan emotsional – baholovchi munosabatni barqarorlashtirib, huquqiy senizmini pasayishiga olib kelganligi tufayli shaxs savodxonligining kognitiv, xulqiy komponentlariga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan;

o'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishga huquqiy savodxonlikning ta'siri kognitiv komponentning jamoaviy va aqliy, emotsional-baholovchi komponentning kasbiy qarashlar bilan to'g'ri, xulqiy komponentning moliyaviy qadriyatlarga teskari proporsional ekanligi tufayli shaxs ijtimoiy qadriyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

o'spirinlarda huquqiy ong rivojlanishi va huquqiy savodxonlik holatini aniqlash bo'yicha diagnostik so'rovnomalari etnopsixologik muhitda foydalanish uchun moslashtirilgan;

o'spirinlarning huquqiy ong shakllarini tadqiq etish metodikasi shaxs xulq-atvorida qonunga nisbatan munosabatlarning eng afzal usuli sifatida tatbiq etilishi taklif etilgan;

o'spirinlarda huquqiy bilimlarni rivojlantirish bo'yicha psixotexnologiyalar ishlab chiqilgan;

o'spirinlarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishning psixologik modeli va maxsus dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni aniq qo'yilganligi, tanlangan metodikalarning validligi, to'planning reprezentativligi, natijalarning ishonchliligi, qo'llanilgan psixodiagnostik metodikalarning psixometrik talablarga javob berishi, olingan empirik natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilganligi (korrelyatsion tahlil, Studentning t-mezoni) va miqdoriy ko'rsatkichlarni psixologik talqin etishda ishonchlilik hamda muqarrarlikning statistik mezonlariga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, psixologiya va sotsiologiya fanlarining yo'nalishlarida o'spirinlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyat rivojlanganligini aniqlash mezonlarini takomillashtirilishi, o'rganilgan va tadqiq etilgan muammoga oid ilmiy tushuncha, tasavvurlarni kengaytirishi, shuningdek, huquqiy savodxonlikning to'liq tafsiloti, huquqiy savodxonlikning kognitiv, xulqiy, emotsional-baholovchi komponentlari, u bilan bog'liq shakllanayotgan huquqiy ong shakllarining ifodalovchi huquqiy realizm, skeptitsizm, konformizm, sinizm, fetishizm, infantilizm, idealizm, nigilizm tushunchalari ochib berilganligi, huquqiy bilimlarning shakllanish xususiyatlariga doir ilmiy xulosalardan ijtimoiy-psixologiya, huquqiy psixologiya va yosh psixologiyasi yo'nalishlaridagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan tajribaviy, empirik ma'lumotlardan huquqiy ta'lim jarayonini psixologik jihatdan tashkil etishning samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi; olingan natijalar va ilgari surilgan g'oyalar yoshlarning huquqiy ong va huquqiy savodxonligini oshirish yo'nalishida muayyan konseptual nazariyaning shakllanishiga xizmat qilishi; shuningdek, nazariy umumlashma va tahlillardan, tadqiq qiluvchi metodikalardan yoshlarning huquqiy bilimlarini o'quv mashg'ulotlari va darslardan tashqari oshirish bo'yicha tashkil etiladigan chora-tadbirlarining samaradorligini ta'minlashda, «Yuridik psixologiya», «Sotsial psixologiya», «Destruktiv xulq psixologiyasi» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda hamda o'quv mashg'ulotlarida materiallar sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

o'spirinlarda huquqiy ustanovkalarni namoyon bo'lishiga ko'ra savodxonlikni emotsional – baholashning yigitlarda, huquqiy munosabatning qiz bolalarda gender xususiyatlarga bog'liq ravishda ustuvorligi tufayli differensial farqlarning mavjudligi dalillanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 2-fevraldagi PM-114-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 1-martdagi PM-114-son ma'lumotnomasi). Natijada o'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning psixodiagnostik jihatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

o'spirinlarda huquqiy ongning namoyon bo'lishi shaxsdagi huquqqa nisbatan intolerantlikning konformizm, sinizm, nigilizm shakli huquqiy savodxonlikka real qarashni pasaytirganligi tufayli ustuvor huquqqa nisbatan deformatsiyalashgan munosabatning ustuvor xarakterge ega ekanligi asoslanganligiga oid natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 2-fevraldagi PM-114-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 1-martdagi PM-114-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'spirinlarda o'quv jarayonida huquqiy ongni rivojlantirish xususiyatlari bilan bog'liq ilmiy-amaliy natijalarni boyitilishiga erishilgan;

o'spirinlarda huquqiy ongning rivojlantirishda huquqiy idealizmni kuchaytirish axborotlarga nisbatan emotsional – baholovchi munosabatni barqarorlashtirib, huquqiy senizmni pasayishiga olib kelganligi tufayli shaxs savodxonligining kognitiv, xulqiy komponentlariga korreksion-adaptiv ta'sir etish muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlanganligiga doir natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 2-fevraldagi PM-114-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 1-martdagi PM-114-son ma'lumotnomasi). Natijada,

o'spirinlarda huquqiy ongning rivojlanishini aniqlashning psixodiagnostik imkoniyatlarini takomillashtirishga erishilgan;

o'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishga huquqiy savodxonlikning ta'siri kognitiv komponentning jamoaviy va aqliy, emotsional-baholovchi komponentning kasbiy qarashlar bilan to'g'ri, xulqiy komponentning moliyaviy qadriyatlarga teskari proporsional ekanligi tufayli shaxs ijtimoiy qadriyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi dalillanganligiga oid natijalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 2-fevraldagi PM-114-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 1-martdagi PM-114-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'limda kasbiy faoliyat yuritadigan mutaxassislar va amaliyotchi psixologlarni psixologik xizmat faoliyatiga doir, malaka va ko'nikmalarini oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, jumladan, 4 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 15 ta ilmiy maqola, 5 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 5 tasi xorijiy jurnallarda, 5 tasi ingliz tilida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsion ish kirish, besh bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 140 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi bilan bog'liq ma'lumotlar ilmiy jihatdan asoslangan.

Dissertatsiyaning «**O'spirinlarda huquqiy ong rivojlanishining metodologik masalalari**» deb nomlangan birinchi bobida o'spirinlarda huquqiy ong va huquqiy bilimlar rivojlanishining muhim jihatlari tadqiq etilgan. Mazkur bobda huquqiy ong va huquqiy savodxonlik tushunchasini jamiyat hayotidagi muhimligi, uning mazmun-mohiyati, ushbu tushunchalarning o'zbek tilining izohli lug'atida, shuningdek ensiklopediyalardagi izohlari tahlili keltirilgan. Huquqiy ong va huquqiy savodxonlik masalalari tahlil etilar ekan, uning tarixiy ildizlari va rivojlanish xususiyatlari borasida o'ziga xos ma'lumotlar mavjudligi kuzatiladi.

Shuningdek, mazkur bobda muammoning psixologik va sotsiologik tadqiqotlarda o'rganilishiga e'tibor qaratilgan. Muammoni bunday jabhadan ko'rilishining o'ziga xos tomoni har bir fanga doir tushunchalarni o'zlashtirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi, ya'ni fan doirasidagi bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq. Mazkur bobda E.I.Atagimova, T.Y.Gersog,

N.V.Ippolitova, Y.V.Turgina, L.M.Manuylova, A.S.Maksimov, I.V.Dubrovina, Y.Y.Danilova, A.M.Prixojan, B.G.Ananev, D.M.Bogoyavlenskiy, N.B.Menchinskaya, E.G'.G'oziyev, M.G.Davletshin, N.G'Kamilova, A.M.Jabborov, B.Qodirov, B.Jo'rayev, B.Umarov, G.To'laganova va boshqalarning izlanishlari asosida muammoga doir psixologik tadqiqotlarning ilmiy talqini keltirilgan. Mazkur tadqiqot muammosi bo'yicha o'zbek psixologlari tomonidan deyarli o'rganilmagan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan ushbu olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'spirinlarda huquqiy bilimlar rivojlanishining psixologik asoslarini o'rganilishi, huquqiy savodxonlikning tarkibiy tuzilmasi, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni empirik tadqiq etish hamda huquqiy ongni rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlarni o'rganish va ularni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Huquqiy ong va bilimlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini empirik o'rganish**» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog'lanishlar o'z aksini topgan. Shuningdek, o'rganilayotgan muammoning metodologik masalalari tahlil qilinib, unda huquqiy ong va huquqiy savodxonlik masalalariga doir yondashuvlar o'ziga xosligi bilan ajralib turishi, o'spirinlarda huquqiy bilimdonlikni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganish masalasida yangi tadqiqot dasturini shakllantirish muhim deb hisoblangan. Ilmiy manbalar tahliliga ko'ra huquqiy savodxonlik masalasini shaxsning ontogenetik taraqqiyot bosqichida shaxsning taraqqiyot bosqichlariga ko'ra tadqiq etishga zarurat tug'iladi.

Dastlab, R.R.Muslumov tomonidan ishlab chiqilgan «Huquq va huquqiy ustanovkaga munosabatni o'lchash» so'rovnomasi orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz.

1-jadval

Huquq va huquqiy ustanovkaga munosabatni o'lchash metodikasi bo'yicha olingan dastlabki tahlil natijalari (n=240)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar	
	Yigitlar n=130	Qizlar n=110	t	p
Huquqiy savodxonlikning emotsional – baholash indeksi	12,3	12,1	-0,78	0,017
Huquqiy munosabat	11,2	11,9	-1,04	0,022
Huquqiy ustanovka	13,9	11,3	-2,57	0,005

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra yigitlar va qizlardan olingan dastlabki natijalar shuni ko'rsatdiki, faqatgina «huquqiy ustanovka» omilida ishonchli farqlar kuzatildi ($t=-2,57$; $p\leq 0,005$). Mazkur omil yigitlarda yuqoriroq natijani tashkil etdi. O'spirinlarning huquqiy ustanovkasi shaxs huquqiy ongining mazmuniy-dinamik (xulqiy) tarkibiy qismi bo'lib, uning muayyan huquqiy xulq-atvorini sodir etishga moyilligi va tayyorligini ifodalaydi. Huquqiy ustanovka huquqiy tarbiyaning natijasi bo'lib, bu o'spirinning mavjud huquqiy institutlar va ta'lim muassasalariga munosabatlarini belgilaydi va huquqiy ustanovkaning mohiyatini to'liq anglash uchun hayotning mazmun-mohiyati bilan bog'liqligini hisobga olish kerak.

«Huquqiy munosabatlar» omili har ikkala respondentlar guruhida o'rtacha natijani ko'rsatdi ($t=-1,04$; $p\leq 0,022$). «Huquqiy munosabatlar» - bu ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solingan bir qismi bo'lib, ularning subyektlari, subyektiv huquq va subyektiv yuridik majburiyatlarga ega bo'ladi. Huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi uchun moddiy asoslar (tomonlarning xohish-istagi, manfati) va yuridik asoslar (mazkur ijtimoiy munosabatni tartibga soladigan tegishli huquq normasining mavjudligi, tomonlarning huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishligi, yuridik faktning mavjudligi) bo'lishi lozim. Tadqiqotda tatbiq etilgan metodikaning mazmuni ham aynan huquqiy munosabatlar va ustanovka xususiyatlarini yoritishga mo'ljallangan mezonlardan iborat.

Metodikamizning so'nggi «huquqiy savodxonlikning emotsional – baholash indeksi» omili ham yigitlar va qizlarda o'rtacha natijani ko'rsatdi. Bu esa har ikkala respondentlar guruhi huquqiy savodxonlik bo'yicha o'rtacha darajada bilimga egaligi ammo mazkur bilimlar beqaror ekanligi aniqlandi.

Endi mazkur metodika orqali olingan natijalarni yosh dinamikasi bo'yicha ko'rib chiqamiz. Buning uchun tadqiqotimizda jalb etilgan litsey talabalari hamda maktabning yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etishdi.

2-jadval

Huquq va huquqiy ustanovkaga munosabatni o'lchash metodikasi bo'yicha olingan dastlabki tahlil natijalari (n=240)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar	
	Maktab o'quvchilari n=155	Litsey talabalari n=85	t	p
Hukukiy savodxonlikning emotsional – baholash indeksi	11,1	13,2	-2,92	0,005
Huquqqa munosabat	10,4	12,8	-2,20	0,005
Huquqiy ustanovka	10,6	12,7	-3,01	0,005

Metodikaning yosh dinamikasi bo'yicha olingan natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, barcha omillarda ishonchli farqlar kuzatildi. Jumladan, «huquqiy savodxonlikning emotsional – baholash indeksi» ($t=-2,92$; $p\leq 0,005$), «huquqqa munosabat» ($t=-2,20$; $p\leq 0,005$) hamda «huquqiy ustanovka» ($t=-3,01$; $p\leq 0,005$) omillarida litsey o'quvchilarida yuqori natija qayd etildi. Mazkur natijalarini o'spirinlarning ta'lim muassasalaridagi o'quv faoliyatining murakkablashib borishi, yosh xususiyatlari va ijtimoiy tajribani oshishi, o'spirinlar huquqiy savodxonligining kognitiv hamda xulqiy jihatlari bo'yicha yosh qiymatlaridagi o'zgarishlar bilan izohlash mumkin. Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida L.S.Mozjakova tomonidan ishlab chiqilgan «Huquqiy savodxonligini o'rganish» so'rovnomasidan foydalandik.

3-jadval

Huquqiy savodxonligini o'rganish so'rovnomasi bo'yicha olingan dastlabki tahlil natijalari (n=240)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar	
	Yigitlar n=130	Qizlar n=110	t	p
Kognitiv	24,2	21,3	-2,36	0,005
Xulqiy	26,1	22,0	-2,93	0,005
Emotsional	22,3	19,1	-2,14	0,005

Huquqiy savodxonligini o'rganish so'rovnomasi bo'yicha «kognitiv» ($t=-2,36$; $p\leq 0,005$), «xulqiy» ($t=-2,93$; $p\leq 0,005$) hamda «emotsional» ($t=-2,14$; $p\leq 0,005$) omillarida yigitlarda yuqori natija qayd etildi. Huquqiy savodxonlik jabhalari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlarning o'spirinlar jinsiga ko'ra ham farqli holatlar aks etdi. Empirik tahlillarda ham o'spirin yigitlarning huquqni kognitiv jihatlardan ustuvorlikni ifodalagandi. O'spirin yigitlar huquqiy bilimlarni egallashda qizlarga nisbatan ko'proq intilishlari aniqlandi. Bu yerda kognitiv jarayonlarini rivojlanganlik darajasi diqqat konsentratsiyasi hamda shaxsning huquqiy munosabatlarga nisbatan emotsional ta'sirchanligi natijasidir. Shunday ekan, o'spirinlarda huquqiy savodxonligini namoyon bo'lishi ularning axborotlarga nisbatan emotsional munosabatlariga bevosita bog'liq. Xulqiy sifatlar ham yigitlarda yuqori ekanligi kuzatildi. O'spirin yigitlarda huquqiy savodxonlik, huquqiy bilimlar yoshlikdan rivojlanishi kuzatildi.

Navbatdagi tadqiqot usulimiz D.S.Beznosovning «Huquqqa munosabat» metodikasi bo'lib, mazkur usulni maktab va litsey o'quvchilaridan o'tkazdik.

Mazkur metodikada sakkizta baholash shkalasi mavjud bo'lib, ular o'spirinlar huquqiy ongning rivojlanish xususiyatlarini o'rganishga xizmat qiladi. Metodikaning shkalalari huquqiy realizm, huquqiy skeptitsizm, huquqiy konformizm, huquqiy sinizm, huquqiy fetishizm, huquqiy infantilizm, huquqiy idealizm va huquqiy nigilizmdan iborat. Metodikaning huquqiy realizm (huquqiy tolerantlik) shkalasi ijobiy xarakterga ega. Huquqiy skeptitsizm, huquqiy

konformizm, huquqiy sinizm, huquqiy fetishizm, huquqiy infantilizm, huquqiy idealizm va huquqiy nigilizm shkalalari esa huquqqa nisbatan demormatsiyalashgan munosabatlarni (huquqiy intolerantlik) aks ettiradi. Olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, «huquqiy realizm» ($t=-3,21$; $p\leq 0,005$), «huquqiy konformizm» ($t=-2,92$; $p\leq 0,005$), «huquqiy sinizm» ($t=-2,70$; $p\leq 0,005$) va «huquqiy nigilizm» ($t=-2,63$; $p\leq 0,005$) omillarida farqlar kuzatildi.

4-jadval

Huquqqa munosabat metodikasi bo'yicha metodikasi olingan dastlabki tahlil natijalari (n=240)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar	
	Maktab o'quvchilari n=155	Litsey talabalari n=85	t	p
Huquqiy realizm	3,1	5,2	-3,21	0,005
Huquqiy skeptitsizm	3,8	4,2	-0,65	0,124
Huquqiy konformizm	3,4	4,9	-2,92	0,005
Huquqiy sinizm	5,0	3,6	-2,70	0,005
Huquqiy fetishizm	5,1	4,9	-1,26	0,147
Huquqiy infantilizm	4,2	4,4	-0,16	0,120
Huquqiy idealizm	3,7	4,1	-1,38	0,211
Huquqiy nigilizm	4,7	3,1	-2,63	0,005

D.S.Beznosovning «Huquqqa munosabat» metodikasi bo'yicha «huquqiy realizm», «huquqiy konformizm» omillari litsey talabalarida yuqori natijani ko'rsatdi. Ushbu yoshdagi o'spirinlar bir jihatdan huquqqa nisbatan ijobiy munosabatda bo'lsa-da, shuningdek, huquqiy tizimning jamiyatdagi normalarga hukmronligini tan olarkanlar, ba'zida uni bilmasliklari, huquq tizimiga qiziqishi bo'lmasada qonuniy normalarga bo'ysunish holatlari aniqlandi.

Maktab o'quvchilarida «huquqiy sinizm» va «huquqiy nigilizm» omillari ustunlik qildi. Bunday o'spirinlarda asosan g'oyalarga moyillik, jamiyatni faqat qonun orqali o'zgartirish mumkinligi hamda yaxshi va to'g'ri qonunlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlashiga xizmat qilishiga ishonishadi. Bundan tashqari «huquqiy nigilizm», ya'ni umuman subyektlarning muayyan qadriyatlarga, normalari, qarashlari, orzu-intilishlari, shaxsiy hayotga ko'pincha salbiy munosabatini ifodalashi, huquqiy savodxonlik bo'yicha bilimlarga ega bo'lsa-da, huquqiy ongini rivojlantirish jihatlari bilan litsey talabalaridan keskin farqlanadi.

O'spirinlarda huquqiy ong darajalarini obyektiv aniqlash ushun shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini diagnostika qilish so'rovnomasi tanlandi. Ma'lumki, bu usul tadqiq yetilayotgan resrondentlarning qadriyatlarini tartiblashni o'z ishiga oladi. Jamiyatda hayotning belgilangan ijtimoiy me'yori va shaxsning maqsadlarini aks ettiruvchi an'anaviy qadriyatlari, taraqqiyoti, yangilikka bo'lgan qiziqishi bilan farqlanadi. Aksariyat tadqiqotchilar an'anaviy va zamonaviy jamiyatlarning qadriyat tizimiga kiruvchi va ming yillik tarixga ega bo'lgan, shaxs xulq-atvori va xatti-harakatlarini tartibga soluvchi umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi.

5-jadval

Ijtimoiy qadriyatlarni o'rganish metodikasi ko'rsatgishlari bo'yicha jinsiy tafovutlarning statistik tahlili (Mann-Uitni U mezon) (n=240)

Ko'rsatgishlar	Ranglar o'rtashasi		Mann-Uitni U	p
	Yigitlar n=130	Qizlar n=110		
Kasbiy	90,7	89,9	2726	0,935
Moliyaviy	91,7	86,2	2580	0,551
Oilaviy	88,0	99,5	2399,5	0,157
Ijtimoiy	93,1	81,1	2383,5	0,201
Jamoat	93,2	80,6	2363,5	0,179
Ma'naviy	82,4	119,7	1612	0,001
Jismoniy	93,9	78,4	2276	0,099
Aqliy	87,3	102,1	2295,5	0,113

Ijtimoiy qadriyatlarni o'rganish metodikasi ko'rsatkichlari bo'yicha jinsiy tafovutlarning statistik tahlillari shuni ko'rsatdiki, o'spirin qizlarda yigitlarga nisbatan ma'naviy qadriyatlar ustunlikka ega, bu holat ularning shaxsiy yo'nalganligi, oila va nikoh masalalari bo'yicha tasavvurlarga egaligi hamda yigitlarga qaraganda erta turmushga chiqishlari bilan izohlanadi. Yigitlarda esa kasbiy, jismoniy, ijtimoiy, moliyaviy qadriyatlar ustuvorligi statistik ahamiyatga molik ekanligi kuzatildi. Mazkur natijalar o'spirinlarda huquqiy ong, mustaqil fikrlashini ro'yobga shiqarshida muhim ahamiyat kasb yetadi. Sababi, shaxsda qaysi qadriyatning ustunligi, uning yo'nalganligiga qarab mustaqil fikrlash darajalari rivojlanadi. O'spirinlarning jamiyatga bo'lgan munosabati, o'zini-o'zi anglashi ulardagi ma'lum bir qadriyatlar tizimini keltirib chiqaradi. Mazkur qadriyatlar asosida esa ularning faoliyat turlaridan kelib chiqib, huquqiy ong darajalari shakllanadi.

O'spirinlarning huquqiy savodxonligi va uning rivojlanishi bilan bog'liq huquqiy madaniyat va huquqiy ong shakllari mavjud. Ular qaysidir ma'noda huquqiy savodxonlikning shakllanishi va rivojlanishi bilan uzviy aloqadorlikka ega. Shu bois, o'spirinlar huquqiy savodxonligi rivojlanishi sharoitida huquqiy ongning ahamiyati va o'rni qanday ekanligini muammoni tadqiq etish jarayonida inobatga olishni taqazo etadi. Agar huquqiy jabhalar bilan bog'liq tushunchalarning qisqacha izohiga to'xtalib, so'ngra empirik materiallar tahliliga o'tish maqsalga muvofiq.

Huquqiy ong shaxsning amaldagi huquq va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatlarini ifodalovchi qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari, his-tuyg'ulari yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda butun jamiyatni, barcha yoshlarda zarur huquqiy ongni rivojlantirish muhim vazifa etib belgilangan. Biroq xalq orasida savodsizlik yuqori darajada bo'lishi yoki qonunlar tushunarsiz bo'lishi, qonunlar matni xalqqa borib yetmaganda yoki qonunlarning mazmuni o'ta murakkab, chalkash va tushunarsiz ifodalanganda xalq o'z huquqlarini bilish imkoniyatidan bebahra qolishi, hayot tarzi esa xatarli tus olishi beqarorlikni keltirib chiqaradi. Chunki, huquq – har bir ongli, shuurli shaxsga daxldor hodisa hisoblanadi. Shu bois, shaxsiy bilimga, zehnga va o'zini o'zi idora qilishga bo'lgan qobiliyat va salohiyatga tayanadi. Ayniqsa, rivojlangan huquqiy ongda huquqning obyektiv mazmunini aniqlash va tushunishga bo'lgan komillik va ishonch darajasi yanada ortadi.

Bu huquqiy xulq-atvor shakli sifatida tushuniladi, unda shaxs guruhning haqiqiy yoki xayoliy bosimi natijasida shaxsiy manfaatlarini qondirish uchun guruh yoki jamiyatning fikrlari, munosabatlari, normalari bilan kelishuvni namoyish etadi. Shaxsning xatti-harakati uning ichki e'tiqodlariga mos kelmaydi.

Endi o'spirinlardagi huquqiy savodxonlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar tahliliga o'tamiz. Dastlab, o'spirinlar huquqiy ongi bilan savodxonligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlarga e'tibor qaratildi.

6-jadval

O'spirinlarning huquqiy savodxonlik jihatlari bilan huquqiy ong shakllari o'rtasidagi korrelyatsiya ko'rsatkichlari (n=240)

Shkalalar	Huquqiy savodxonlik jihatlari		
	Kognitiv	Xulqiy	Emotsional-baholash
Huquqiy realizm	-0,574*	0,219	0,172
Huquqiy skeptitsizm	0,174	-0,127	0,137
Huquqiy konformizm	0,108	0,121	0,043
Huquqiy sinizm	0,886*	0,855*	-0,105
Huquqiy fetishizm	0,565*	0,156	-0,128
Huquqiy infantilizm	-0,788*	0,174	-0,681*
Huquqiy idealizm	0,916*	0,547*	-0,456*
Huquqiy nigilizm	-0,102	-0,124	0,019

Tadqiqotda huquqiy savodxonlik jihatlari bilan huquqiy ong shakllari o'rtasidagi aloqadorlik masalasini o'rganishga e'tibor qaratildi. Buning uchun o'spirinlarning huquqiy savodxonlik jihatlari bilan huquqiy ong shakllarining quyi, o'rta va yuqori darajali ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili amalga oshirildi. Jumladan, «kognitiv» omili «huquqiy realizm» ($r=-0,574^*$; $p<0,05$), «huquqiy infantilizm» ($r=0,788^*$; $p<0,05$) va «huquqiy fetishizm» ($r=-0,565^*$; $p<0,05$) omillari bilan salbiy, «huquqiy sinizm» ($r=0,886^*$; $p<0,05$), «huquqiy

idealizm» ($r=0,916^*$; $p<0,05$) omillari bilan ijobiy bog'lanishlar mavjudligi aniqlandi.

Huquqning kognitiv jihatlaridagi ustuvorlik o'spirinlarda huquqiy sinizm va huquqiy fetishizmni susaytirishga xizmat qilar ekan. Oqibatda o'spirinlarning jamiyatdagi huquqiy me'yorlarni anglab turib buzishga jur'at etmasliklari, huquqiy me'yorlarga ko'r-ko'rona bo'ysunumasliklariga olib kelishi kuzatildi. Bundan tashqari kognitiv omilning o'spirinlarda yuqori bo'lishi, huquqqa hurmatsizlik ko'rsatmaslik, o'zining xatti-harakatlarini huquqiy me'yorlarga mos amalga oshirish, huquqiy normalarni kamsitmaslik, huquqqa ongli munosabatda bo'lishiga olib kelishi asoslandi.

Huquqiy savodxonlikning kognitiv omili yuqori darajali o'spirinlarda huquqqa ijobiy munosabat, huquqni ongli tushunish, qonunchilikni ijobiy baholash va huquqni bilishi, jamiyatning huquqiy tizimiga bag'rikenglik munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

«Xulqiy» omili «huquqiy sinizm» ($r=0,855^*$; $p<0,05$) hamda «huquqiy idealizm» ($r=0,547^*$; $p<0,05$) omillari bilan ijobiy korrelyatsion bog'lanishlar aniqlandi. Huquqiy savodxonlikning xulqiy jihatlar ham real voqelikka mos va huquqiy bilimlarni amaliy ko'rinish olishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida huquqiy savodxonlikning xulqiy jihatida yuqori natijali o'spirinlar huquqqa ishonchsizlik kayfiyatini ifodalamasliklari va faoliyat doirasida amalga oshirishda hech qanday shubxa qilishmaydi. Bundan tashqari huquqiy xulq-atvor komponenti xulqiy jihatdan madaniyat darajasiga o'sib borganligi sababli o'zining xatti-harakatlari uchun qonunni inkor etmasdan, qonunlarni ongli ravishda buzmasligi kuzatildi.

Emotsional-baholash omili «huquqiy infantilizm» ($r=-0,681^*$; $p<0,05$), «huquqiy idealizm» ($r=-0,456^*$; $p<0,05$) va «huquqiy konformizm» bilan salbiy korrelyatsion bog'lanishlar aniqlandi. Agar o'spirinlarda huquqiy savodxonlikning emotsional-baholash jihatini shakllanishi, huquqiy bilimlarga va huquqiy vaziyatlarga nisbatan o'zining imkoniyatlarini to'g'ri baholashi hamda uni o'zlashtirishdagi shaxsiy munosabatga egaligi huquqiy ong shakllari sifatida yuqoridagi xususiyatlarini susaytirishga olib keladi. Natijada o'spirinlarda o'zining huquqiy jihatdan bilimlariga shaxsiy munosabatga, huquqiy me'yoriy-hujjatlarga nisbatan shaxsiy munosabatiga egaligi tufayli uni ortiqcha baholamaslikka, huquqiy me'yorlarni bilishi va bilimlari yetarli ekanligiga ishonch hosil qilishiga, huquqiy normalarga nisbatan obyektiv munosabatini shakllantirishi haddan ortiq ilohiylashtirishdan yiroq bo'lishiga olib keladi.

«O'spirinlarning huquqiy savodxonlik jihatlarini» bilan «Ijtimoiy qadriyatlarini o'rganish» metodikalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalari tahliliga o'tadigan bo'lsak, «kognitiv» omili «jamoat» ($r=0,660$; $p\leq 0,05$) hamda «aqliy» ($r=0,704$; $p\leq 0,05$) qadriyatlar o'rtasida ijobiy bog'lanishlar mavjudligi aniqlandi. Keyingi «xulqiy» omil esa «moliyaviy» ($r=-0,587$; $p\leq 0,05$) qadriyat turi bilan teskari korrelyatsiya berdi. So'ngi «emotsional-baholash» omili «kasbiy» ($r=0,660$; $p\leq 0,05$) qadriyatlar bilan ijobiy korrelyatsiyaga kirishganligi kuzatildi.

«O‘spirinlarning huquqiy savodxonlik jihatlari» bilan «Ijtimoiy qadriyatlarni o‘rganish» metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion bo‘lanishlar tahlili

Shkalalar	Huquqiy savodxonlik jihatlari		
	Kognitiv	Xulqiy	Emotsional-baholash
Kasbiy	0,120	0,042	0,630*
Moliyaviy	0,110	-587*	0,238
Oilaviy	0,231	0,230	0,142
Ijtimoiy	0,140	0,142	0,039
Jamoat	0,660*	0,118	0,247
Ma‘naviy	0,065	0,198	0,128
Jismoniy	0,131	0,150	0,215
Aqliy	0,704*	0,131	0,074

O‘spirinlarning huquqiy savodxonlik strukturaviy komponentlaridan biri bo‘lgan «Emotsional-baholash»ning ijtimoiy qadriyatlardagi kasbiy qadriyatlar bilan bog‘liqligi shaxsning faoliyatga yo‘nalganligini anglatadi. Qolaversa, o‘spirinlardagi praksik hislarning intellektual hislarga uyg‘un holda yuqori bo‘lishi ularni kasbiy faoliyatdan, o‘zi bajarayotgan ishdan zavq ola bilishidan dalolat beradi. Albatta kasbiy faoliyatga yo‘nalganlikning muvaffaqiyati mazkur faoliyatni rejalashtirilganligi bilan bog‘liq. Shunday ekan o‘spirinlar huquqiy savodxonlik darajalarini rivojlanishida kasbiy yo‘nalganlik bilan bog‘liq namoyon bo‘ladigan ijtimoiy tasavvurlar, tushunchalar va kasbiy sifatlar faoliyatni rejalashtirish qobiliyati bilan integrativ namoyon bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

O‘spirinlarni huquqiy savodxonlik yana bir muhim komponenti «kognitiv» omili bo‘lib, mazkur omil jamoaviy jipslik darajasi bilan bog‘liq qadriyatlar bilan ijobiy korrelyatsiya beradi. Bunda jamoaviy faoliyatga yo‘nalganlikning ustuvorligi o‘spirinlarni huquqiy savodxonligini oshirish jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilishini anglatadi. O‘spirinlarni huquqiy savodxonligini oshirishda jamiyat, guruhning manfaatlari, ijtimoiy xarakteriga ega bo‘lishi bilan belgilanishi bir tomon bo‘lsa, ikkinchi tomondan shaxsning jamiyat tomonidan “tan olinish” bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirilishiga xizmat qiladi. Aynan mana shu muhim ikki jihat faoliyat natijasini baholashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘spirinlardagi «xulqiy» omilining beqaror bo‘lishi, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarning ustun bo‘lishiga olib kelishi asoslandi. Bizningcha mazkur holatga sabab o‘spirinlarning ijtimoiy munosabatlarda o‘z xulq-atvorini nazorat qila olmasligi, ularning qiziqishlari atrofdagilar tomonidan e‘tirof etilmasligi, ushbu holatlarni boshqasi bilan kompensatsiya qilish, «Men»ligini anglashi, turli xildagi jinoyatlarni sodir etishga nisbatan moyilligi hamda o‘zini jamiyatda «mavjud»ligini isbotlash maqsadida to‘liq mustaqil bo‘lishga intilish yuqori bo‘lishi kuzatildi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, o'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirish, ulardagi qadriyatlar tizimi, uning yo'nalganligiga qarab fikrlashning ma'lum bir sifatlari shakllanishi kuzatildi. O'spirinlarning jamiyatga bo'lgan munosabati, qonun qoidalarni tushunish darajasi, o'zini-o'zi anglashi ulardagi ma'lum bir qadriyat tizimini keltirib chiqarishi hamda mazkur qadriyatlar asosida esa ularning faoliyat turlaridan kelib chiqib, ma'lum bir fikrlash darajalari shakllanishi mexanizmlari aniqlandi.

«O'spirinlarda huquqiy ong va bilimlar rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini eksperimental o'rganish» nomlangan uchinchi bobda o'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ilmiy uslubiy asoslari va tadqiqot obyektlaridan olingan natijalarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, olib borilgan nazariy, empirik tahlillar asosida o'spirinlarda huquqiy ong rivojlantirishga oid treninglar dasturi ishlab chiqildi va uning samaradorligiga erishildi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda endi tadqiqotdagi empirik natijalar tahliliga o'tamiz. L.S.Mozjakova tomonidan ishlab chiqilgan "Huquqiy savodxonligini o'rganish" metodikasini biz tajribadan oldin hamda tajribadan keyin natijalarni tahlil qildik.

9-jadval

Huquqiy savodxonligini o'rganish so'rovnomasi natijalarining qiyosiy tahlili (n=240)

Sinaluvchilar guruhlari	Omillar	Eksperiment dan oldingi ko'rsatkichlar		Eksperimentdan keyingi ko'rsatkichlar		Statistik tafovut ko'rsatkichlari (t-mezoni bo'yicha)
		M ₁	S ² ₁	M ₂	S ² ₂	
Tajriba guruhi N=110	Kognitiv	22,3	1,7	24,8	0,9	0,05
	Xulqiy	24,0	1,4	27,1	0,1	0,05
	Emosional	20,7	1,5	23,4	0,5	0,05
Nazorat guruhi N=130	Kognitiv	23,7	1,6	23,8	1,5	0,12
	Xulqiy	24,5	1,2	24,7	1,0	0,14
	Emosional	21,2	1,7	21,4	1,6	0,17

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi dastur talabalarda huquqiy savodxonlik darajasining oshganligini kuzatdik. Xususan, tajriba guruhi vakillarida «kognitiv», «xulqiy», «emotsional» omillari rivojlanganlik darajasi ortganligi namoyon bo'ldi. Dastlabki, «kognitiv» omili bo'yicha bir qancha ishonshli farqlar kuzatildi ($t=-2,3$; $p\leq 0,05$). Bu esa o'spirinlarda yangi huquqiy tushunchalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish, o'quv faoliyatidagi faollik, aqliy sifatlari, muammolarni hal qilish usullari, qaror qabul qilish jarayonlarida ahamiyatli darajadagi statistik o'zgarishlar aniqlandi. O'spirinlarda kognitiv omilning rivojlanishi o'z navbatida maqsad sari oldinga intilishi, kelajakka ishonchi, huquqiy qonun-qoidalarni anglashga bo'lgan ishtiyoqini oshishiga xizmat qiladi.

«Xulqiy» ($t=-2,9$; $p\leq 0,05$) omilda ham ishonchli farqlar qayd etildi. Asli xulq bu unutilgan huquqdir. Ya'ni, norma sifatida huquqning ma'lum bir qoidasi

shaxsning tarbiyaviy axloqiy jihatiga ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy normalarning shaxs hayotidagi ko'nikma shaklida ko'rinishi xulq-atvorga ijobiy ta'sirini ko'ratadi. Bundan tashqari o'spirinlarda xulqiy omilning rivojlanishi huquq normalarning asosiy toifalari ijtimoiy, psixologik va huquqiy qoidalarining mazmun-mohiyatini anglashga yordam beradi.

«Emosional» ($t=-2,5$; $p\leq 0,05$) omilida statistik farqlar kuzatildi. Olib borilgan empirik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'spirinlardagi emotsional sifatlar empatiyaviy xususiyatlar bilan bog'liq. Chunki, o'spirinlarda boshqa shaxslarning huquqiy munosabatlarini hurmat qilishi, ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilishi, boshqalarni tushunishi, emotsiyalarini tahlil qilishi, xayrixohlik bildirishi kabi sifatlarni rivojlanishi ularning o'quv faoliyati davomida samaradorlikka erishishi uchun xizmat qiladi.

XULOSA

1. O'spirinlarda huquqiy ong va huquqiy bilimlar rivojlanishining jahon va mahalliy tadqiqotlardagi holati muammoning yaxlit hamda yetarlicha o'rganilmaganligi, o'spirinlar huquqiy bilimlarning ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida tadqiq etishga zarurat mavjudligi nazariy-amaliy jihatdan dallilandi.

2. O'spirinlarning huquqiy tushunchalarni o'zlashtirish, huquqiy bilimlarga bo'lgan ehtiyoj va motivlarida o'zi, oila a'zolari va yaqinlari bilan bog'liq haq-huquqlarning buzilishi, shuningdek, o'zini anglash, xatti-harakatlarini tartibga solishi, prosotsial xulq-atvorni amalga oshirish uchun huquqiy jihatdan bilimlarga ega bo'lishi, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, tibbiy xizmat va mulkchilik huquqlari bilan bog'liq holatlardagi huquqiy buzilishlar yetakchi sabablar ekanligi aniqlandi.

3. O'spirinlarda huquqiy savodxonlikka erishishning psixologik tahlili ular orasida ma'lum savodxonlikni oshirishga xizmat qiluvchi manbalardan foydalanishlariga ko'ra, huquqiy bilimlarni tushunmaydigan, foydalana olmaydigan va huquqiy manbalardan foydalana oladiganlar toifasiga ajratildi. O'spirinlarning huquqiy savodxonligi yo'nalishida huquqiy ma'lumotga, huquqiy qadriyatga, huquqiy faollikka, o'zini o'zi huquqiy nazorat qilish xususiyatlariga egaligi kuzatildi.

4. O'spirinlarning shaxslararo munosabatlariga ko'ra, huquqiy savodxonlikka bo'lgan ehtiyoj shaxsning har doim huquqiy bilimlar olishga va boyitib borishiga zaruratini hamda huquqiy masalalarga duch kelgandagina ehtiyoj ortishi aniqlandi. O'spirinlarda huquqiy ongning rivojlanish jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun ontogenetik bosqichlariga muvofiq o'quv fanlari va huquqiy axborotlar egalik darajasini e'tiborga olish zarurligi isbotlandi.

5. Huquqiy savodxonlikni psixologik xususiyatlarini tahlil qilish o'spirinlar huquqiy savodxonligining kognitiv, xulqiy va emotsional-baholash komponentlari bo'yicha tafsilotlar belgilab beradi. O'spirinlarda ta'lim muhitida huquqiy bilimlarni oshirish, turli yosh bosqichlarida huquqiy savodxonlikni ta'minlashning izchil va uzluksizlik tizimini shakllantirish, ontogenetik taraqqiyot xususiyatlariga

ko'ra huquqiy ongning rivojlantirish ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarini kuchaytirish kabi xususiyatlar ustuvorligi aniqlandi.

O'spirinlarda huquqiy ong va huquqiy bilimlarni rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy **tavsiyalar** berildi:

1. O'spirinlar huquqiy ong va huquqiy bilimlarni rivojlanish holati monitoringi uchun psixodiagnostikasi bazasini ishlab chiqish zarur.

2. O'spirinlarda huquqiy madaniyatni samaradorligini ta'minlash uchun ontogenetik bosqichlariga muvofiq o'quv fanlari va zamonaviy adabiyotlar, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llashga alohida e'tiborga olish zarur.

3. O'spirinlarni hayotning keyingi bosqichida huquqiy muammolar yuzasidan mutaxassislar bilan munosabatga kirishishi uchun ijtimoiy, psixologik, huquqiy bilim, ko'nikmalarni doimiy tarzda shakllantirish maqsadga muvofiq.

4. O'quv jarayoni va ta'lim muhitidan tashqari huquqiy tadbirlar, soha mutaxassislar bilan uchrashuvlarni yo'lga qo'yish orqali o'spirinlarda huquqiy bilimlarni hamda huquqiy bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash mumkin.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLICATION

I bo'lim (I chast; I part)

1. Ортиқов С.С. Повышение правовой грамотности подростков – как актуальная психологическая проблема //Вестник интегративной психологии. Ярославль: – № 30, 2023. – С. 191-197. (19.00.00. №2).

2. Ortiqov S.S. O'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning metodologik tahlili //Педагогик ва психологик тадқиқотлар. – Тошкент: – I-жилд, 10-сон, October 2023 DOI Jurnal 10.56017/2181-4066 B. 110-114.

3. Ortiqov S.S. O'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning tadqiqot tanlamasi xususiyatlari //Педагогик ва психологик тадқиқотлар. – Тошкент: – I-ЖИЛД, 11-СОН, November 2023 DOI Jurnal 10.56017/2181-4066 B. 120-124.

4. Ortiqov S.S. O'spirinlarda huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni oshirish – muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida //Innovative Developments and Research In Education International scientific-online conference Part 19 July 23rd Colletions of scientific works Canada – 2023. B. 127-132.

5. Ortiqov S.S. O'spirinlarda huquqiy ongni o'rganishning tadqiqot metodikalari tavsifi //Тараққиёт тадқиқотлари: муаммо, таклиф ва ислохотлар мавзусидаги Республика кўп тармоқли илмий-амалий анжуманлари материаллари тўплами, 10-сон II-қисми, 31 октябрь 2023 йил. – Тошкент. B. 20-22.

6. Ortiqov S.S. Turli davlatlarda ijtimoiy-psixologik va psixoprofilaktik xizmatning shakllanishi //Тараққиёт тадқиқотлари: муаммо, таклиф ва ислохотлар мавзусидаги Республика кўп тармоқли илмий-амалий анжуманлари материаллари тўплами, 11-сон II-қисми, 30 ноябрь 2023 йил. – Тошкент. B. 10-14.

7. Ortiqov S.S. O'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari //International Journal of Education, Social Science Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) (SJIF) = 7.502 Impact factor Volume-11 Issue-8 2023 Published: 22-08-2023. B. 268-277.

8. Ortiqov S.S. O'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning falsafiy jihatdan o'rganilganligi talqini //Pedagog Respublika ilmiy jurnali 6 – Tom 11 – Son / 2023 - yil / 15 - noyabr O'zbekiston - 2023. B. 140-143.

II bo'lim (II chast; Part II)

